

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LUG'AVIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Parpiyev Odil Olimovich,

Qo'qon universiteti, Ta'lim kafedrasi dotsent v.b.

odilparpiyev71@gmail.com (99 899 6193971)

Annotatsiya. Jamiyatda yangi avlodni tarbiyalash, avvalo, uning og'zaki va yozma nutqining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Nutqni rivojlantirishning asosini esa o'quvchilarning lug'at boyligi tashkil qiladi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida lug'aviy ko'nikmalarining rivojlanishi masalasi yoritilgan bo'lib, asosiy e'tibor ona tili darslarida o'quvchilarning yangi so'z bilan ishlay olishi, yangi so'z ishtirokida gaplar va matn tuza olish malakasiga qaratildi. Bolalardagi nafaol lug'atni faol lug'atga aylantirish usullari bayon etilib, interaktiv usullar orqali so'z ustida ishlashning samarali ekanligi ta'kidlangan. Muallif ilgari surayotgan fikrlarini soha mutaxassislarining fikrlari asosida rivojlantirgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z ma'nosining tushuninish darajasi, berilgan matn tarkibidagi so'zlarni yakka va o'qituvchi yordamida anglashi ularga berilgan mashqlar asosida sinab ko'rildi. Tajriba-sinov ishlari Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 2-, 10-umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-, 3-, 4-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilib, pedagogik kuzatish, taqqqoslash, qiyoslash metodlari amaliyotga joriy qilindi. Tajriba-sinov natijalari umumlashtirilib, jadvalda ifodalandi va muallif munosabati bildirildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lug'aviy kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati ta'kidlanib, xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, lug'at, so'z, imlo, izohli lug'at, yozma, nutq, interaktiv, metod.

METHODS OF DEVELOPING STUDENTS' VOCABULARY SKILLS IN MOTHER LANGUAGE LESSONS

Abstract. The upbringing of a new generation in society depends, first of all, on the level of development of its oral and written speech. The basis of speech development is the vocabulary of students. The article discusses the development of vocabulary skills in primary school students, focusing on the ability of students to work with new words in native language lessons, to compose sentences and texts with the participation of new words. Methods for transforming children's inactive vocabulary into active vocabulary are described, and the effectiveness of working on words through interactive methods is emphasized. The author developed his ideas based on the opinions of experts in the field.

The level of understanding of the meaning of words by primary school students, their understanding of words in a given text, both individually and with the help of a teacher, was tested on the basis of the exercises given to them. Experimental work was conducted among students of grades 2, 3, and 4 of secondary schools No. 2 and 10 in Navoi city, Navoi region,

and pedagogical observation, comparison, and comparison methods were put into practice. The results of the experimental work were summarized, presented in a table, and the author's attitude was expressed.

The importance of developing vocabulary competencies in primary school students was emphasized and conclusions were drawn.

Keywords: primary education, dictionary, word, spelling, explanatory dictionary, writing, speech, interactive, method.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. Воспитание нового поколения в обществе зависит, прежде всего, от уровня развития его устной и письменной речи. Основой развития речи является словарный запас учащихся. В статье рассматривается развитие словарного запаса у учащихся начальной школы, при этом основное внимание уделяется умению учащихся работать с новыми словами на уроках родного языка, а также умению строить предложения и тексты с использованием новых слов. Описаны методы преобразования неактивного словарного запаса детей в активный, подчеркнута эффективность работы над словарным запасом с помощью интерактивных методов. Автор развил свои идеи, основываясь на мнениях экспертов в данной области.

Уровень понимания значений слов и способность учащихся начальной школы понимать слова в заданном тексте как самостоятельно, так и с помощью учителя проверялись на основе предложенных им упражнений. Экспериментальная работа проводилась среди учащихся 2, 3, 4 классов средних школ № 2 и 10 города Навои Навоийской области и применялись методы педагогического наблюдения, сравнения и сопоставления. Результаты эксперимента обобщены и представлены в таблице, а также высказано мнение автора.

Была подчеркнута важность развития словарного запаса у учащихся начальной школы и сделаны выводы.

Ключевые слова: начальное образование, словарный запас, слово, правописание, толковый словарь, письмо, речь, интерактив, метод.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim jarayonida yuksak pedagogik kompetensiya, uslubiy mahorat ko'nikmalariga ega bo'lish talabini qo'yadi. Ona tili ta'limini lug'atlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchilarning lug'atlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ona tilini muvaffaqiyatli o'rganish va bolaning aql-idrokini rivojlantirish uchun zaruriy shartdir. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari har xil lug'at turlari bilan ishlay olishi,

o'quvchilarning lug'atlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak. Shundagina o'quvchi tomonidan egallangan bilimlar DTS talablariga javob beradi.

Ona tilini amaliy o'zlashtirish, birinchi navbatda, ma'lum miqdordagi so'zlarni bilishni talab qiladi. Shuning uchun o'quvchilarga ona tilidagi nutqni dastlabki o'rgatish jarayonida asosiy o'rinlardan birini lug'at va imlo ishlari egallaydi. Lug'at va imlo ishining vazifasi nutq faoliyati uchun zarur bo'lgan lug'at boyligini to'plash, ularning uyg'unlik qonuniyatlarini, turli leksik ma'nolarni o'zlashtirishdan iborat. O'quvchilarning lug'at boyligining bosqichma-bosqich boyib borishi ularga lug'at ishining turlari va shakllarini xilma-xil qilish, ilgari o'rganilgan so'zlarning leksik ma'nosini konkretlashtirish va aniqlashtirish imkonini beradi.

O'quvchilarning so'z boyligini boyitish o'qituvchiga ona tiliga murojaat qilmasdan so'zlarning ma'nolarini tushuntirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinflar uchun o'quvchiga ona tilida oddiy fikrlarni ifodalash va suhbatdoshni dasturda nazarda tutilgan talablar doirasida tushunish imkonini beradigan so'zlar tanlanishi kerak. Birinchi sinfdan boshlab, har bir darsda nutqiy vaziyatlar (dialog, suhbat, ekskursiya, hikoya) natijasida o'quvchilar yangi so'zlarni o'zlashtiradilar va ilgari o'rganilganlarini mustahkamlaydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'quvchining lug'at boyligi har doim tilshunos olimlar diqqat markazida bo'lgan. Ular sirasiga mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari olimlaridan L. S. Vigotskiy, M. R. Lvov, A. N. Gvozdev, S. N. Tseitlin, o'zbek bolalar nutqi tadqiqotchilaridan B. Mengliyev, N. Mahmudov, B. To'xliyev, O. Roziqov, O. Madayev, K. Qosimova, S. Matchonov, M. Z. Hamdamova, M. R. Hazratqulov, K. M. Mavlonova, N. Z. Umarova, H. Hayitov va G. H. Hamrayevlarning tadqiqotlarini kiritishimiz mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, birinchi sinf o'quvchisi o'z nutqida 2,5–3 ming so'zdan 7-8 ming so'zgacha, shu jumladan, faol va passiv lug'atdan foydalanadi [1]. O'quvchilar lug'atini kuzatish, nutqiy faoliyatda so'zlardan foydalanishi asosida o'quvchilarda nafaol lug'atning ustunligiga guvoh bo'ldik. Bu o'rinda o'qituvchining asosiy vazifasi nafaol lug'atni faol lug'atga aylantirish, darslarda bunday so'zlardan unumli foydalanish choralarini ishlab chiqish muhimdir. Chunki o'quvchi yuqori o'zaki va

yozma nutqiy fikrlash jarayonlari amalga oshirishda yetarli darajada soʻzlar zahirasi ega boʻlishi zarurdir.

Shu oʻrinda M.S.Soloveychikning quyidagi fikrlarini keltirib oʻtish maqsadga muvofiq: “Agar oʻquvchida taʼlimning dastlabki bosqichlarida lugʻatlarga murojaat qilish zarurati tugʻilmagan boʻlsa, u yordam vositalaridan foydalanish va kerakli maʼlumotlarni tezda topish qobiliyatini rivojlantirmagan boʻlsa, ular real vaziyatlarda ona tilining mavjud soʻz boyliklaridan erkin foydalanuvchisiga aylanishi dargumon. Kelajakda paydo boʻlgan boʻshliqni toʻliq toʻldirish dargumon” [2]. Shuning uchun ham ona tili darslarida oʻquvchi imkoniyatlaridan kelib chiqib, lugʻat ustida ishlashda turli interaktiv usullarni qoʻllash orqali faol lugʻatni rivojlantirish bolalarni hayotiy koʻnikmalarga tayyorlashning muhim vositasidir. Manbalarda lugʻat soʻziga quyidagicha taʼrif berilgan: “Lugʻat — 1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud boʻlgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan soʻzlar yigʻindisi; 2) soʻzlar muayyan tartibda joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, maʼnolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimasi haqida maʼlumotlar jamlangan kitob” [3].

Boshlangʻich sinflarda lugʻat ustida ishlashda maʼnoni tushuntirish, soʻzning imlosiga alohida eʼtibor qaratiladi. Savod oʻrgatish jarayonida esa rasmlil izoh lugʻatlardan foydalanish oʻquvchining qiziqishini oshiribgina qolmay, ularning yangi soʻzlar bilan tanishishlari, bu soʻzlarni fikrni ifodalashda qoʻllay olishlariga yaqindan yordam beradi. Tadqiqotimiz davomida Alifbe darsligida berilgan yangi soʻzlarni tushuntirish bilan chegaralanib qolmasdan, 1-sinf oʻquvchilari uchun rasmlil izoh lugʻatlar vositasida tavsiya qilingan 2-3ta soʻzlar bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinganining guvohi boʻldik.

Odatda, lugʻat ustida ishlash uning turi xususiyatidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Jumladan, M.R.Lvov izohli lugʻat bilan ishlashning umumiy uslubiy tamoyillarini ishlab chiqib, quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga olishini taʼkidlaydi: 1) yangi soʻzni topish; 2) soʻz maʼnosini aniqlash; 3) yangi soʻz bilan mashq bajarish; 4) lugʻatni faollashtirish [4]. Haqiqatan ham, M.R.Lvovning bu fikrlarini qoʻllab-quvvatlagan holda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining lugʻaviy koʻnikmalarini rivojlantirishda faqatgina darslikda berilgan soʻzlardan foydalanibgina qolmasdan,

balki dars mashg'ulotiga o'quvchilar dunyoqarashi, qiziqishi, yozh saviyasidan kelib chiqib, yangi so'zlarni ham taqdim etish kerak deb hisoblaymiz.

K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, "...bola ikki-uch yilda shuncha narsani oson va tez o'rganib oladiki, keyin yigirma yil qunt bilan astoydil o'qigan taqdirda ham uning yarmini o'zlashtira olmaydi" [5].

V.I.Loginova, YU.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, E.M.Strunina va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'quvchilarning ona tili lug'at boyligini o'zlashtirib olishlari va amalda qo'llashlariga oid metodik tavsiyalar yoritilgan.

2023-2024-o'quv yilidan boshlang'ich sinflarda foydalanib kelinayotgan ona tili darsliklarida o'quvchilarning lug'atini boyitishga, nafaol so'zlarni faol so'zlarga aylantirishga doir mashqlar berilgan, lekin yangi ma'noli so'zlarning lug'aviy ma'nosini aniqlashtirishga doir darslik sahifalarida va darslik oxirida so'zlar izohi berilmagan. Bu esa kichik yoshli o'quvchilarda lug'at ustida ishlashga doir mustaqil faoliyatlarini cheklaydi. Jumladan, 2-sinf ona tili [6] darsligining 3-qismida 13-mavzu 8-mashqda berilgan "Osti tosh, usti tosh, O'rtasida chandir bosh" topishmog'idagi "chandir", 14-mavzu 2-mashqda "sayyora", "yo'ldosh", 12-mashqda "kalkulyator", 15-mavzu 3-mashqda "marosim", 7-mashqda "kimyogar", "vitamin" kabi so'zlarni izohlashda o'qituvchining yordami kerak bo'ladi. Agar shu so'zning izohi darslik oxirida berilganida edi, o'quvchilar bu kabi so'zlarning ma'nosini mustaqil o'qib tushunib olardilar va ularda mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlantirilardi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Boshlang'ich sinflarda lug'at ustida ishlashning asosiy maqsadi o'quvchilarda lug'atdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va ularni nutqiy vaziyatlarda erkin qo'llay olishlariga erishish hisoblanadi.

Tadqiqotimiz davomida ona tili darslari jarayonida Navoiy shahar 2-, 10-umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-, 3-, 4-sinf o'quvchilari o'rtasida lug'aviy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashq va usullarni amaliyotga tatbiq qildik. Pedagogik kuzatishlar davomida asosiy e'tibor o'quvchilarning matndagi so'zlarning ma'nosiga tushunishi, tushunmagan so'zlarning ma'nosini o'qituvchi yordamida matn mazmunidan kelib chiqib anglashi va bu so'zlarni erkin qo'llay

olishlariga qaratildi. 3-sinf o'quvchilari uchun quyidagi matndan foydalanildi: "Bir Maymun kunlardan bir kun duradgorning xoda ustida pona bilan uni yorayotganini ko'rdi. Duradgor bir ponani qoqqandan keyin ikkinchisini chiqarib olar, uni boshqa yerga qoqar va shunday qilib xodani yorib borardi. Duradgor zarur ish bilan bir yoqqa ketdi. Buni ko'rgan Maymun o'ziga daxli bo'lmagan ishga aralashib duradgorning ishini davom ettirmoqchi bo'ldi. Maymun yuzini ponaga qaratib xoda ustiga minib oldi. Uning dumi xodaning yorig'iga tushib turar edi. U ponani sug'ura boshladi.

Maymun ponani chiqarishi bilan dumini xoda qisib qoldi. Maymun hushidan ketdi, to duradgor yetib kelguncha, shu ahvolda yotdi". ("Kalila va Dimna"dan).

Yozish topshirig'ini berishdan oldin o'quvchilarni uch guruhga ajratib, matn qismlari tarqatildi va o'quvchilar mazmun bilan tanishganlaridan so'ng aytib berdilar. 2-topshiriq sifatida guruhlariga quyidagi vazifalar berildi:

1-guruh uchun: matn qismlarini ketma-ketlikda yozing.

Duradgorning pona yorishi, maymunning ishi, dumning qisilishi, duradgorning qaytishi.

2-guruh uchun: matndan olingan quyidagi so'z va iboralar bilan ularning izohini moslab yozing.

Kunlardan bir kun, chiqarib olar, yerga qoqar, daxli bo'lmagan, xoda ustiga, ponaga qaratib.

3-guruh: Quyidagi so'roqlarga javob bo'luvchi so'zlarni topib yozing.

nima qilibdi?, kim?, nima? qanday?

Tadqiqotimiz davomida 2- va 4-sinf o'quvchilariga ham xuddi shunday topshiriqli mashqlar berib, ularning so'zlardan erkin foydalana olishlari, mantiqiy ketma-ketlik asosida matn yarata olish mahoratlarini sinovdan o'tkazdik. Tajriba-sinovda ishtirok etgan sinf o'quvchilarida lug'aviy ko'nikmalarning shakllanishini kuzatish va taqqoslash metodi asosida tahlil qildik.

NATIJALAR

Boshlang'ich sinflarda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari shundan dalolat berdiki, o'quvchilar lug'atini boyitish ustida olib borilgan har qanday mashq turi tuzilajak fikr, matn yaratish uchun o'quvchilarda qulaylik yaratdi. Boshlang'ich sinf

o'quvchilarida lug'aviy ko'nikmalarni rivojlantirishga doir tadqiqot natijalarini quyidagi jadvalda ifodalashga harakat qildik. **Qarang 1-rasm.**

t/r	Topshiriq turlari	2-sinf		3-sinf		4-sinf	
		TS	NS	TS	NS	TS	NS
1	Yangi so'zlarni izohlay olishi	84%	64%	86%	65%	84%	66%
2	Yangi so'z bilan so'z birikmasi tuzish	83%	73%	84%	70%	84%	69%
3	Yangi so'z bilan gap tuza olish	84%	71%	85%	71%	87%	71%
4	Nuqtalar o'rniga mos so'zni tanlash	88%	70%	90%	77%	91%	72%
5	Ijodiy mashqlar	84%	65%	88%	66%	90%	68%
6	Matn qismlarini mazmunan biriktirish	86%	70%	90%	71%	91%	70%
7	Ijodkorlik daqiqasi	87%	69%	88%	70%	89%	72%
8	So'z o'yinlari	92%	75%	93%	76%	94%	80%

1-rasm. Tajriba-sinov ishlarining nazorat bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'aviy ko'nikmasi shakllanish darajasining qiyosiy natijasi [7].

Tajriba va nazorat sinflarida olib borilgan tajribalar nazorat sinflariga qaraganda tajriba sinf o'quvchilarida leksik va yozish ko'nikmalari rivojlanishi yuqori ekanligi qayd etildi. Yuqoridagi jadval asosida shuni aytish mumkinki, ona tili darslarida lug'at ustida ishlash samaradorligini oshirishda "Ijodkorlik daqiqalari", "So'z o'yinlari", "O'yla, izla, top", "Zakovat" kabi ta'limiy o'yin vositalari, rasmi izoh lug'atlar yaqindan yordam beradi.

Tadqiqotimiz davomida o'tkazilgan pedagogik kuzatishlar asosida ba'zi boshlang'ich sinf o'quvchilarida lug'aviy ko'nikmalari rivojlanmaganligining sababi

sifatida o'qituvchilar tomonidan lug'at ustida ishlash uchun qulay pedagogik sharoit yaratilmasligi, yosh o'qituvchilarning lug'atlar xususiyatini bilmasliklari oqibatida ulardan foydalanmasliklari, lug'atlar ustida ishlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanmaslik kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.

MUHOKAMA

XX asrning oxirida ushbu muammoning dolzarbligi A. A. Bondarenkoning asarlarida ta'kidlangan: "... bola uchun lug'at "bo'yi bo'yicha", "miqdoriga ko'ra" yoshiga qarab bo'lishi kerak" [8]. Shuni alohida qayd etish kerakki, kichik yoshli maktab o'quvchilarining lug'at boyligi, uni rivojlantirish usullari haqida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, lekin hanuzgacha boshlang'ich sinf o'quvchilari bilishi lozim bo'lgan lug'atlar yaratilmagan bo'lib, bu esa hamon dolzarbligicha qolmoqda. Bizning fikrimizcha, boshlang'ich sinflar uchun lug'atlar bolalar nutqidagi faol so'zlarni qamrab olishi, o'quv va adabiy materiallarga monand bo'lishi, so'zlarning izohi, imlo uchun va to'g'ri talaffuz uchun alohida lug'atlar yaratilib, umumiy so'zlar hajmi 5000 atrofida bo'lishi shu yoshdagi o'quvchilar uchun mos kelardi.

Lug'atlar bilan ishlash samarali bo'lishi uchun bir nechta shartlarga rioya qilish kerak:

- lug'atlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichma-bosqich bo'lishi kerak;
- boshlang'ich sinflarda darslarda lug'atlardan foydalanish tizimli bo'lishi kerak;
- ona tili va o'qish savodxonligi darslarida izohli rasmlilug'atlardan foydalanishni takomillashtirish lozim;
- lug'at ustida ishlashda interaktiv usullarni keng joriy qilish kerak.

Professor S.Matchonov boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan lug'at ustida ishlashning bir nechta bosqichlarini ajratib ko'rsatadi [9]. Bu esa har qanday lug'at ustida ishlash tizimlilik asosida amalga oshirilishi muhimligini izohlaydi.

XULOSA

Boshlang'ich sinflarning ona tili mashg'ulotlarida lug'at ustida ishlash o'quvchi so'z boyligini oshiribgina qolmay, imloviy, lingvistik kompetensiyalarining

rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Bu esa og'zaki fikrni yozma ifodalashda o'quvchilarning ulardan ongli foydalanishlariga erishishda, o'zgalar nutqini anglashlarini ta'minlashda qulay qulay vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Львов М. Р., Горецкий В. Г., Сосновская О. В. Методика преподавания русского языка в начальных классах: учебное пособие высш. пед. учеб. заведений. М.: Академия, 2007. 464 с.
2. Соловейчик М. С., Харченко О. О. Современные подходы к обучению орфографии в начальных классах // Цикл лекций на заочных курсах повышения квалификации учителей в педагогическом университете «Первое сентября»: газета «Начальная школа». 2006. № 17.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Lug%CA%BBat>
4. Львов М. Р., Горецкий В. Г., Сосновская О. В. Методика преподавания русского языка в начальных классах: учебное пособие высш. пед. учеб. заведений. М.: Академия, 2007. 464 с.
5. Parpiyev O.O. Lug'at ustida ishlash yozma nutqni rivojlantirishning asosi. //Inter education&global study. 2024. №4(2). B. 206–212.
6. Kuranov S.D. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. III qism. –Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. –96 b.
7. Бондаренко А. А. Словари для малышей // Начальная школа. 1993. № 10. С 28-32.
8. Matchonov S., Bakiyeva H., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Xolboyeva G.. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. – 2021-yil.